



JAHON TASVIRIY SAN'ATIGA OID PLASTIK ANATOMIYA MANBAALARI TAHLILI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7853570>

Nilufar Abdumutalib qizi Kurbanova

Namangan davlat universiteti

*Tasviriy san'at va amaliy bezak
san'ati yo'nalishi II kurs magistranti*

Annotatsiya: Maqola tasviriy san'atning asoslaridan biri bo'lgan plastik anatomianing inson qomatini statik va dinamik holatda aslidek tasvirlashdagi ahamiyatinio'r ganib chiqqan rassom-pedagoglarning ilmiy izlanishlari va metodik tavsiyalarini olib beradi. Shuningdek plastic anatomianing tarixi, rivojlanishi va bugungi kunda san'at sohasidagi o'rni, bo'lajak rassomlarning realizm uslubida badiiy asar yaratishda anatomik bilimlardan foydalanish muhim ekanligi haqida boradi.

Kalit so'zlar: Anatomiya, oddiy (tizimli) anatomiya, Funksional anatomiya, topografik anatomiya, dinamik anatomiya, tasviriy san'at, plastik anatomiya, realizm, haykaltaroshlik, inson qomati.

Avvalo anatomiya nima? Uning qanday yo'nalishlari mavjud? Plastik anatomianing san'at bilan bog'liqlik taraflarini ko'rib chiqaylik. Anatomiya so'zi yunoncha "Anatome" so'zidan olingan bo'lib, tarjima qilinganda "yoraman" degan ma'noni bildiradi, demak, u yorish, kesish demakdir. Anatomiyada biz har bir organning tuzilishi uning funksiya va vazifalarini, inson hayotidagi o'rnini to'liq o'rganamiz. Anatomianing juda ko'plab yo'nalishlari mavjud bo'lib, ular birgina inson tanasini har xil nuqtayi nazardan o'r ganib chiqishi bilan farqlanadi. Masalan: Oddiy (tizimli) inson anatomiyasi - bu inson anatomiyasining "normal", ya'ni sog'lom inson tanasining organ tizimlari, a'zolari va to'qimalariga ko'ra tuzilishini o'rganadigan bo'limi.

Funksional anatomiya tibbiy amaliyotda inson tanasining organlari va tizimlarining tuzilishidagi ularning ishlash tabiatini bilan bog'liqligini aniqlash, individual rivojlanish darajasida organlarning shakllanishini o'rganishni, talab qilinadigan o'zgaruvchanlikning chegaralarini aniqlash vazifalarini qo'yadi.

Topografik anatomiya - ilmiy va amaliy fan bo'lib, inson anatomiyasining anatomik mintaqalarning qatlamlı tuzilishini, tananıng yoshi, jinsi va konstitutsiyaviy xususiyatlarını hisobga olgan holda normal va patologik sharoitlarda ta'minlash, innervatsiya va limfa drenaji organlarning nisbiy holatini (sintopiyasini), teri proyeksiyasini (holotopi), skeletga (skeletotopi) munosabatini, qonni o'rganadigan bo'limi.



Dinamik anatomiya (yunoncha dynamikos - harakat) oddiy anatomiyaning bir qismidir. U inson tanasining sport, mehnat, badiiy va boshqa harakatlari, shuningdek, bu harakatlar bajarilganda vujudga keladigan anatomik o'zgarishlarni o'rganadi.

Plastik anatomiya esa tana tashqi shakllarini hosil qiluvchi organlarni: skelet, bo'g'implar muskullarni: yuz tafsilotlarini, asosiy harakatlar va proportsiyalarni, muvozanat va og'irlik markazini, shuningdek anatomiya asoslaridan foydalanib qomatni tasvirlash metodikasini, ya'ni skelet hamda umumlashtirilgan muskul massivlari asosida figura tuzish metodikasini, anatomiq tafsilotlarni ko'rib chiqish, ulardan foydalanish asosida detallar tuzishni o'rganadi. Chindan ham muskullar, suyaklar, bo'g'implar va boshqalarning tuzilishini o'rganish uchun tanani yorish zarur, shundagina tana mexanizmining ayrim qismlarini bilib olsa bo'ladi. Qadim zamonlarda odamlar, aftida bu ish bilan shug'ullanmaganlar va anatomiyanı o'z holicha o'rganishmasdan, balki tashqi kuzatuqlar va proportsiyalarni o'rganish bilan shug'ullanishgan. E.V.Lvovaning "plastic anatomiya" o'quv qo'llanmasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Lvova plastik anatomiyaning tarifi, uning kelib chiqish tarixi hamda birgina anatomiyaning bir nechta turlari bilan tanishtirib o'tadi.

"Xis qilish, bilish, uddalash to'la to'kis san'atdir" deb tariflaydi mashhur pedagog-rassom P.P.Chistyakov r. Rassom odamni, hayvonni tasvirlar ekan uning tuzilishini anatomiyasini bilmog'i kerak. P.P.Chistyakov o'zining programma talablarini bayon qilar ekan "Qo'l panjası suyaklar, paylar, muskullardan tuzilgan bo'lib, teri bilan qoplangan. Uning suratini o'rinnatib ishlash uchun suyaklarni o'rganish... mos qilib chizish kerak" deb takidlab o'tgan.

Professor Jovanni Chivardi - italiyalik rassom va o'qituvchi, chizmachilik kursini o'qitish bo'yicha zamonaviy mutaxassislardan biri. Jovanni Chivardi chizmachilik texnikasi bo'yicha qator qo'llanmalar muallifi bo'lib, ularda anatomiya, chizmachilik texnikasi va portretlarni o'qitish bo'yicha o'zining ko'p yillik tajribasini o'quvchilar bilan o'rtoqlashadi. Chivardining kitoblari yangi ijodkorlar orasida hurmatga sazovor va besh tilda sakkiz marta qayta nashr etilgan. Undan siz inson tanasining qismlarini, irq va jinsni hisobga olgan holda odamlarning anatomiyasidagi farqni va rassomlar uchun zarur bo'lgan boshqa nuanslarni qanday tasvirlashni o'rganasiz. Mashhur italiyalik rassom, anatomiq chizmachilik bo'yicha nufuzli mutaxassis Jovanni chivardi o'zining inson tanasining tuzilishi bo'yicha keng qamrovli qo'llanmasida rassomlarga atama va tarixiy faktlarga mohirona murojaat qilib, inson tanasini tasvirlashning asosiy tamoyillarini tushuntiradi. Muallifning ajoyib asari tasvirlangan texnik maslahatlar va amaliy maslahatlar bilan kitob har qanday rassom uchun bebaho bilim manbai bo'ladi.

Vengriyalik rassom, professor Yenyo Barchai : "Rassomlar uchun Anatomiya" (анатомия для художников) kitobining muqaddimasida "Anatomiya-inson qomatini tuzilishi xaqidagi ta'limot va xususan suyaklar va murskullar qurilishi-xar bir san'at uchun zarurdir uning sub'yekti shaxsning o'zi sanaladi. Faqatgina ushbu ta'limotga ega bo'lgandagina, inson tanasining turli xil tuzilishini, odam harakatining



nisbatini va hatto his tuyg'ularning turli ifodalarini ongli ravishda kuzatish mumkin. Faqatgina anatomiya asoslaridan foydalangan holda, tinch holatdagi inson qomatini tasvirlabgina qolmay balki ko'zga zo'rg'a seziladigan o'tkinchi harakatlar, yuz ifodasining nozik nuanslarini ko'rsatib berishimiz mumkin.

Anatomik bilimlarsiz oldimizga qo'yilgan modelni qisqa vaqt ichida qomati va yuzidagi harakatlarni baadiy tarzda ifoda eta olmaymiz." Deb plastik anatomiyaning tasviriy san'atda tutgan o'rnnini bildirib o'tgan.

Tasviriy san'atda plastik anatomiyaning o'rnnini nechog'lik muhim darajada ekanligini isbotlab berishga urungan va uni ustidan chiqqan, ushbu fanni rivojiga o'z hissasini qo'shgan juda ko'p pedagok-rassom va tadqiqotchilarni ko'rishimiz mumkin. Ularning ilmiy izlanishlari va sayi-harakatlari bilan plastik anatomiya bugungi kunda o'z rivojiga erishdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. E.Barchai . А н о т о м и я для художников . Moskva.EKSMO.2002.
2. E.V.Lvova. "Пластическая анатомия". Chelyabinsk, 2016.
3. Djovanni Chivardi. "Рисунок человеческое тело анатомия морфология пластика".Moskva.EKSMO.2005.
4. M.T.Rabinovich."Odam, to'rt oyoqli hayvonlar va parrandalar plastic anatomiysi va uni rasmda tatbiq qilish".Toshkent. O'qituvchi. 1980.